

Humans mobil ilovasida “C2C (card to card) o’tkazmalarini amalga oshirganlik uchun foydalanuvchi komissiyasining chegarasini o’zgartirilishi” Aksiyasi qoidalari (yangi tahrirda).

16 aprel 2025

Humans mobil ilovasida “C2C o’tkazmalarini amalga oshirganlik uchun foydalanuvchi komissiyasining chegarasini o’zgartirilishi” (yangi tahrirda) aksiyasi “OCTAGRAM” AJ, manzil: Toshkent sh., Yunusobod tumani, Osiyo ko’chasi, 6uy, 46-xonodon, STIR 307993034 (Paylov) va “Humans” Mas’uliyati cheklangan jamiyati, manzil: 100047, O’zbekiston Respublikasi, Toshkent sh., Maxtumquli ko’chasi, 2B uy, STIR 306624856 (Humans) o’rtasida Humans Sodiqlik Dasturi doirasidagi qo’shma aksiyasi hisoblanadi.

1. AKSIYA HAQIDA MA’LUMOT

1.1. Ushbu Qoidalar matnida bosh harflardan boshlanib foydalaniladigan so’zlar atamalar hisoblanadi. Atamalarning ma’nosи <https://paylov.uz/pages/public-offer>, saytida joylashtirilgan Paylov To’lov servisining Ommaviy ofertasida, www.humans.uz saytida joylashtirilgan Humans Sodiqlik Dasturi Qoidalarda, “HUMANS PAY” servisidan foydalanish Qoidalarda keltirilgan, agar ushbu Qoidalarda boshqacha ma’no berilmagan bo’lsa.

1.2. Aksiya ishtirokchilari — “HUMANS PAY” foydalanuvchilari bo’lgan, Humans mobil ilovasiga bank kartasini bog’lagan va Qoidalarning 2 bo’limida sanab o’tilgan amallarni bajargan jismoniy shaxslar mijozlar.

1.3. Aksiya o’tkazilish hududi: O’zbekiston Respublikasi.

1.4. Yangi tahrirdagi Aksiya o’tkazilish davri: 16.04.2025dan muddatsiz.

1.5. C2C o’tkazma — Aksiyaning ushbu Qoidalari maqsadida bu Aksiya Ishtirokchisining boshqa jismoniy shaxsga pul mablag’larini o’tkazishni amalga oshirish.

2. AKSIYA TAVSIFI

2.1. Ushbu Qoidalarga rioya qilgan holda, Humans bilan aloqa xizmatlarini ko’rsatish bo'yicha shartnoma tuzmagan Aksiya Ishtirokchilari agar Aksiya Ishtirokchisining barcha C2C o’tkazmalarining umumiyligi miqdori kalendar oyi davomida 1 000 000 (bir million) so’mdan oshmasa, C2C o’tkazmalarini mijozlik komissiyasisiz amalga oshirish imkoniyatiga ega bo’ladilar.

2.1.1. 16.04.2025 yildan boshlab agar Humans bilan aloqa xizmatlarini ko’rsatish bo'yicha shartnoma tuzmagan Aksiya Ishtirokchisining kalendar oyi davomida barcha C2C o’tkazmalarining umumiyligi miqdori 1 000 000 (bir million) so’mdan oshsa, bunday Aksiya Ishtirokchisi Aksiya o’tkazilishi davomida quyidagi jadvalga ko’ra miqdorlarda C2C o’tkazmalarini amalga oshirganda, foydalanuvchi komissiyasini kamaytirish imkoniyatiga ega bo’ladi:

C2C_yo'nalish	1 000 000 so'mdan keyin foydalanuvchi komissiyasi
Uzcard kartadan Uzcard kartaga	0,49%
Uzcard kartadan Humo kartaga	0,49%
Humo kartadan Humo kartaga	0,49%
Humo kartadan Uzcard kartaga	0,49%

Bunda yuqorida Jadvalda ko'rsatilgan komissiyalar faqatgina Aksiya Ishtirokchisi tomonidan C2C o'tkazmalarda Aksiya Ishtirokchisining kalendar oyi davoimidagi C2C o'tkazmalari umumiyl miqdori 1 000 000 (bir million) so'mga yetganda, olinadi.

2.2. Ushbu Qoidalarga rioxaliga qilgan holda, Humans bilan aloqa xizmatlarini ko'rsatish haqidagi shartnomani tuzgan Aksiya Ishtirokchilar (Super VIP Tarif paketini ulagan Aksiya Ishtirokchilaridan tashqari) agar Aksiya Ishtirokchisining barcha C2C o'tkazmalarining umumiyl miqdori kalendar oyi davomida 5 000 000 (besh million) so'mdan oshmasa, C2C o'tkazmalarni mijozlik komissiyasisiz amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

2.2.1. 16.04.2025 yildan boshlab agar Humans bilan aloqa xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha shartnoma tuzgan Aksiya Ishtirokchisining (Super VIP Tarif paketini ulagan Aksiya Ishtirokchilaridan tashqari) kalendar oyi davomida barcha C2C o'tkazmalarining umumiyl miqdori 5 000 000 (besh million) so'mdan oshsa, bunday Aksiya Ishtirokchisi Aksiya o'tkazilishi davomida quyidagi jadvalga ko'ra miqdorlarda C2C o'tkazmalarni amalga oshirganda, foydalanuvchi komissiyasini kamaytirish imkoniyatiga ega bo'ldi:

C2C_yo'nalish	5 000 000 so'mdan keyin foydalanuvchi komissiyasi
Uzcard kartadan Uzcard kartaga	0,49%
Uzcard kartadan Humo kartaga	0,49%
Humo kartadan Humo kartaga	0,49%
Humo kartadan Uzcard kartaga	0,49%

Bunda yuqoridagi Jadvalda ko'rsatilgan komissiyalar faqatgina Aksiya Ishtirokchisi tomonidan C2C o'tkazmalarda Aksiya Ishtirokchisining kalendar oyi davoimidagi C2C o'tkazmalari umumiyl miqdori 5 000 000 (besh million) so'mga yetganda, olinadi.

2.3. Ushbu Qoidalarga rioxaliga qilgan holda, Super VIP tarif paketidan foydalanadigan Humans bilan aloqa xizmatlarini ko'rsatish haqidagi shartnoma tuzgan Aksiya ishtirokchilar, agar Aksiya Ishtirokchisining barcha C2C o'tkazmalarining umumiyl miqdori kalendar oyi davomida 10 000 000 (o'n million) so'mdan oshmasa, C2C o'tkazmalarni mijozlik komissiyasisiz amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

2.3.1. 16.04.2025 yildan boshlab agar Humans bilan aloqa xizmatlarini ko'rsatish haqidagi shartnoma tuzgan, Super VIP Tarif paektidan foydalanadigan Aksiya Ishtirokchisining kalendar oyi davomida barcha C2C o'tkazmalarining umumiyligini 10 000 000 (o'n million) so'mdan oshsa, bunday Aksiya Ishtirokchisi Aksiya o'tkazilishi davomida quyidagi jadvalga ko'ra miqdorlarda C2C o'tkazmalarni amalga oshirganda, foydalanuvchi komissiyasini kamaytirish imkoniyatiga ega bo'ladi:

C2C_yo'nalish	10 000 000 so'mdan keyin foydalanuvchi komissiyasi
Uzcard kartadan Uzcard kartaga	0,49%
Uzcard kartadan Humo kartaga	0,49%
Humo kartadan Humo kartaga	0,49%
Humo kartadan Uzcard kartaga	0,49%

Bunda yuqorida Jadalda ko'rsatilgan komissiyalar faqatgina Aksiya Ishtirokchisi tomonidan Aksiya Qoidalarining ushbu 2.3 bandiga asosan amalga oshiriladigan C2C o'tkazmalarda Aksiya Ishtirokchisining kalendar oyi davomimidagi C2C o'tkazmalari umumiyligini 10 000 000 (o'n million) so'mga yetganda, olinadi.

2.4. Aksiyada "HUMANS PAY" servisining amaldagi Mijozlari va ularning servisidan foydalanishi Humans tomonidan to'xtatilmagan Mijozlar deb hisoblanadigan Ishtirokchilari ishtirok etishi mumkin.

2.5. Aksiya o'tkazilish davrida C2C o'tkazmalar amalga oshirilganligi uchun Keshbek berilmaydi.

2.6. Aksianing bitta Ishtirokchisining C2C o'tkazmalari soni cheklanmagan.

3. YAKUNIY QOIDALAR

3.1. Ushbu yangi tahrirdagi Qoidalar ular Humans Saytida joylashtirilgan paytdan boshlab kuchga kiradi. Humans va Paylov Humans Saytida tegishli xabarni joylashtirish orqali xabar berib, ushbu Qoidalarni bir tomonlama tartibda o'zgartirishlari, Aksiyani uzaytirishlari yoki bekor qilish huquqiga ega. Xabarnoma sanasi deb Humans Saytida tegishli axborotning joylashtirilish sanasi hisoblanadi. Tegishli axborotning Humans Saytida joylashtirilishi vaqtidan boshlab Qoidalar o'zgartirilgan, Aksiya esa uzaytirilgan yoki bekor qilingan hisoblanadi.

3.2. Ishtirokchi tomonidan Humans mobil ilovasida C2C o'tkazmaning amalga oshirilishi jismoniy shaxslarga yo'naltirilgan oferta hisoblanadigan Qoidalar bilan to'liq va so'zsiz rozi ekanligini bildiradi.